



**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQINI  
ÖSTIRISHNING AHAMIYATI**

**Qayumova Maftuna Qahhor qizi**

*Shahrishabz Davlat Pedagogika Institutining talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning nutqini östirish, nutqiy jihatdan yetuk shaxs bolib rivojlanishi, maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning savodxonligini oshirish, luǵat boyligini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida sòz boradi.

**Kalit sòzlar:** savodxonlik, luǵat boyligi, nutq, ta'lism, tarbiya, rivojlantirish, maqsad, vazifa, so'z boyligi, bog'lanishli nutq, nutqning tovush tomoni, nutqning grammatik tomoni, badiiy adabiyot.

**Abstract:** This article talks about the measures aimed at improving the speech of children of preschool age, developing them as verbally mature individuals, improving the literacy of children of preschool age, and expanding their vocabulary.

**Key words:** literacy, vocabulary, speech, education, upbringing, development, purpose, task, vocabulary, connected speech, sound side of speech, grammatical side of speech, fiction.

### **Kirish**

Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lism tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limiini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'linda bolalar nutqini östirish ularga ona tilini amaliy o'rganish demakdir.

Bolaga oila va maktabgacha ta'lism muassasasida psixologik jihatdan qulay bo'lishi, uning kattalar va tengdoshlari o'rtasida emotsiyonal jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o'zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quyidagilar zarur:

- bolaga kattalar va tengdoshlarining turli emotsiyonal holatdagi hissiyotlari va kechinmalari olamini ochib berish;
- bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilishi uchun sharoit yaratish;
- quvonchli, qayg'uli, xotirjam, emotsiyonal holatini ko'rish va tushunishga bo'lgan intilishni rivojlantirish;
- o'zini tutib turish va g'azab, qo'rquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishni rivojlantirish (boshqa bolani turtmaslik, urmaslik, o'yinchoqni qo'ldan tortib olmaslik va h.k.);
- jamiyatda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash: ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o'z iltimos va takliflarini xushmuomalalik bilan bildirish; yordam bergenlik, mehmon qilganlik uchun, o'yinchoqni berib turganlik uchun minnatdorchilik izhor qilish; o'rtog'inining iltimosiga xushmuomalalilik bilan javob qaytarish; javobini xotirjamlik bilan tinglash; o'rtog'ini xafa qilmaydigan ohangda o'z noroziligini izhor qilish.

Nutq o'stirish metodikasining asosiy vazifasi tarbiyachilarni maktabgacha ta'linda nutq o'stirishning ilmiy pedagogik asoslangan, eng samarali natija beradigan omillari,



vositalari va usullarini ishlab chiqish, tarbiyachi, pedagog, ota-onalarni nutq o'stirish usullari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, eng qulay usullardan foydalanish, nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Ta'lism to'g'risi"dagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda noan'anaviy, o'yin usulining qo'llanishi, mujassam mashg'ulotlarni tashkil etilishi, ayniqsa, hozirgi zamon yaxshi pedagogik texnologiyani ta'limda qo'llash kabilar bunga misol bola oladi.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920 yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi, so'ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutqni psixologik tadqiq qilishning istiqbolli vazifasi sifatida inson nutqiy qobiliyatining konseptual modelini qurish psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqiladi (T.N.Ushakova).

Nutq - bu tilni ishga solish jarayonidir (I.A.Zimnyaya, V.M.Solnsev). Sub'yeqtning nutqiy faoliyati ichki vosita va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o'z ichiga oladi.

Nutq - bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs mulkidir. U tildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasiadir.

Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda: "Ta'lism-tarbiya ong mahsuli, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"

Chunki bugungi xalqaro hayot, jamiyat taraqqiyotida har qanday salbiy faoliyat va muammolarni bartaraf etishda intellektual saloqiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, "Kuch-bilim va tafakkurda" (I.A.Karimov).

Maktabgacha ta'linda bolalar nutqini o'stirishga doir barcha ishlar biz orzu etgan barkamol avlodni, komil insonni shakllantirishga qaratilishi lozim.

### **Asosiy qism**

Mening ushbu tadqiqot ishimda maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning nutqini ostirishning ahamiyati hamda "Ilk qadam" Davlat dasturi asosida "Nutq ostirish mashg'ulotlarini tashkil qilishga doir masalalar organilgan.

Bolaning ruhiy kamolotining ko'p jihatlari nutq bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Chunki, bola muloqotga kirishishi ya'ni tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari jarayonida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi va o'zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko'tarib boradi.

Shu sababdan ham bolalarni nutqini ostirish masalasiga ahamiyat berish zarurdir

### **Xulosa**

Bolalarning nutqini o'rganishning eng qulay usuli, shubhasiz, suhbat metodi hisoblanadi. Shuningdek, bolalarning tevarak-atrofda mavjud bo'lgan narsalarni kuzatish va ularni tahlil etish, ular haqida sayrlarda uyushtirilgan savol-javoblar ham muhimdir. Shu bilan birga, bolalarning bog'lanishli nutqini o'rganishda ularning tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini östirishning asosiy maqsadi òsib kelayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash, og'zaki nutqini o'stirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qilishni bilishga o'rgatish,bolalarning jamiyatga qulay moslashishi, savodxonlikni oshirish ekan bu sohaga barchamiz òz hissamizni qoshishimiz zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi".O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asari, Toshkent-2017 yil
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
3. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma
4. <http://google.com>
5. <http://book.uz>
6. <http://www.ilmiy-maqola.uz>
7. <http://www.dissertant.uz>
8. <http://maqola.uz>